

AYOLLAR VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INSTITUTSIONAL BOSHQARUV

Mirojxon Yusupova
ADU dotsenti, i.f.n.

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosatining institutsional asoslari, ularning samaradorligi hamda hududiy darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy natijalari tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash tizimida uchrayotgan muammolar-moliyaviy resurslarga kirishdagi to'siqlar, axborot tanqisligi va malaka yetishmasligi tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: ayollar tadbirkorligi, yoshlar tadbirkorligi, institutsional qo'llab-quvvatlash, mintaqaviy rivojlanish, davlat dasturlari, bandlik, gender tenglik, iqtisodiy faollik.

Аннотация: В статье анализируются институциональные основы государственной политики, реализуемой в Республике Узбекистан по развитию женского и молодежного предпринимательства, ее эффективность и социально-экономические результаты на региональном уровне. Анализируются проблемы, возникающие в системе поддержки женского и молодежного предпринимательства, такие как препятствия к доступу к финансовым ресурсам, дефицит информации и профессиональных навыков, а также предлагаются меры по их устранению.

Ключевые слова: женское предпринимательство, молодежное предпринимательство, институциональная поддержка, региональное развитие, государственные программы, занятость, гендерное равенство, экономическая активность

Abstract: The article analyzes the institutional framework of the state policy implemented in the Republic of Uzbekistan to develop women's and youth entrepreneurship, their effectiveness and socio-economic results at the regional level. The article also analyzes the problems encountered in the system of supporting women's and youth entrepreneurship - obstacles to access to financial resources, information deficit and skills shortage, and puts forward proposals to eliminate them.

Keywords: women's entrepreneurship, youth entrepreneurship, institutional support, regional development, state programs, employment, gender equality, economic activity.

Kirish. Bugungi kunda jahon mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy tenglikni kuchaytirish va bandlik darajasini oshirishda ayollar hamda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, jamiyatning ushbu ikki qatlamining iqtisodiy faolligi oshgan sari milliy ishlab

chiqarish hajmi, innovatsion salohiyat va ijtimoiy barqarorlik darajasi sezilarli oshadi.

O'zbekiston Respublikasida ham oxirgi yillarda tadbirkorlikni, xususan, yoshlar va ayollar tashabbuslarini har tomonlama rag'batlantirishga qaratilgan keng ko'lamli institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar mamlakat iqtisodiy strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, ular hududiy iqtisodiyotning faollashuvi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-avgustdagi PF-6275-sonli Farmoni "Ayollar va yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish hamda ularni tizimli qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi hujjat alohida ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, 2022-yil 7-martdagi PQ-140-sonli Qaror bilan "Ayollar bandligini oshirish va ularning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari" belgilab berildi. Qaror asosida tijorat banklari huzurida ayollar va yoshlar loyihalarini moliyalashtirishga mo'ljallangan maxsus imtiyozli kredit liniyalari tashkil etildi. Shuningdek, 2023-yil 17-iyuldagi PQ-266-sonli Qaror "Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" hujjatida ayollarni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga jalb qilish, ularning biznes yuritish ko'nikmalarini shakllantirish va innovatsion loyihalarda ishtirokini rag'batlantirish mexanizmlari belgilab berildi. Davlat siyosatining amaliy ifodasi sifatida "Yoshlar-kelajagimiz", "Har bir oila- tadbirkor", "Ayollar daftari" kabi dasturlar hayotga tatbiq etildi. Ushbu tashabbuslar orqali minglab oilalar o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish imkoniga ega bo'ldi, shu orqali hududlarda yangi ish o'rinlari yaratilib, bandlik darajasi oshdi. Biroq, mavjud yutuqlarga qaramay, ayrim hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional va tashkiliy cheklovlar, moliyaviy resurslardan foydalanishdagi byurokratik to'siqlar, hamda axborot va malaka yetishmovchiligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Muhitdinova F.A. tomonidan ayollarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga davlat va jamiyat taqdiriga daxldor qarorlarni hayotga tatbiq etish, xususan, qonunlarni ishlab chiqish, qabul qilish, islohotlarni amalga oshirish jarayonlarida bevosita qatnashishlari muammolariga qonun doirasida adolatli echim topish maqsadida sud-huquq sohasidagi islohotlar ham tahlil etilgan.[1]

Tadqiqot natijalari hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligi uchun qulay muhit yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda iqtisodiyotda gender tenglikni ta'minlash yo'lida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ayollar va erkaklar qonunan teng huquqlidirlar va davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ularga teng imkoniyatlar yaratilishi kafolatlanadi.[2] Yangi Konstitutsiyaning "Oila, bolalar va yoshlar" bobida davlat yoshlarning ijtimoiy,

iqtisodiy, siyosiy huquqlarini himoya qilishni, ularning jamiyat hayotida faol ishtirokini rag‘batlantirishni ta‘minlashini belgilaydi. Shuningdek, yigit-qizlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish va oilaviy biznesga jalb qilish bo‘yicha maxsus tadbirlar chora-tadbirlar dasturiga kiritilgan (masalan, “Besh tashabbus olimpiadasi”). Xalqaro me‘yoriy hujjatlardan O‘zbekiston CEDAW (ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish konvensiyasi) va CRC (bolalar huquqlari) kabi BMT konvensiyalarini ratifiklagan. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) konvensiyalaridan O‘zbekiston 1951-yilda Teng mehnat haqi konvensiyasi (100-son) va 1958-yilda Mehnatda kamsitish konvensiyasini (111-son) qabul qilgan. Bu konvensiyalar mehnat sohasida ayollarga o‘xshash imkoniyat va teng haqqoniy sharoitlarni kafolatlaydi. Ushbu xalqaro normalar asosida yuridik darajada ijtimoiy himoya (masalan, “Ayollar daftari”), mehnat va biznes qonunchiligida tenglik prinsiplarini mustahkamlash bo‘yicha islohotlar olib borilmoqda. Masalan, Konstitutsiya va Qonunchilikda oilaviy majburiyatlar ayol va erkakka teng tayinlanishi va nuroniy hamda bolalar tarbiyasi uchun davlat ko‘magining muhimligini alohida qayd etadi. BMT va XMT konvensiyalari mehnat, bandlik va ijtimoiy himoya sohasida mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi va milliy dasturlar ushbu xalqaro majburiyatlarga mos kechishi kuzatilmoqda.

2023-yilda respublikada jami 5,2 mln ta tadbirkorlik sub’ektlari faoliyat yuritgan bo‘lib, ulardan 2,1 mln tasi – xotin-qizlar rahbarligidagi tadbirkorlik sub’ektlari edi.[3] Bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan qariyb yetti barobar o‘shishni bildiradi. Ayol tadbirkorlar iqtisodiyotning xususan qishloq xo‘jaligi va savdo sohalarida faol, ular respublikadagi barcha band bo‘lgan ayollarning ~35 foizini tashkil etadi.[4] Yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikka qiziqish ham kuchli; milliy tadqiqotlar 55% yoshlardan tadbirkorlik faoliyatini xohlashini ko‘rsatadi. Andijon viloyatida ham ayollar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar faol davom etmoqda.

Andijon viloyati ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari so‘nggi yillarda sezilarli yaxshilandi. 2024-2025-yillar kesimida viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 104,0%, xizmatlar 113,7% darajada o‘sgan (2024- yilning mos davriga nisbatan).[5] Toshkent bilan birgalik, Andijon innovatsiya va IT sohasida ham jadal rivojlanmoqda. Rasmiy statistika ma‘lumotlariga ko‘ra, shahar kesimida 2025-yil 1-yanvar holatida xotin-qizlar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 345 tani tashkil etib, ulardan asosiy qismi xizmatlar (198 ta) va savdo (100 ta) sohasida faoliyat yuritgan. Ushbu ayol rahbarlar boshqaruvidagi sub’ektlarning mahsulotlar savdosi hajmi 386,6 mlrd so‘mga yetib, viloyat kichikbiznesidagi ulushi 31,6% ga teng bo‘lgan. 2023–2024 yillarda yoshlarga doir dasturlar ham kengaytirildi: Yoshlar texnoparki faoliyatini kengaytirish natijasida 307 nafar iste‘dodli yosh bepul dasturlash, grafik dizayn, robototexnika kabi zamonaviy kasblar bo‘yicha kurslarni tamomlab, o‘z startaplarini ishga tushirish imkoniyatiga ega bo‘ldi (bepul ta‘lim qiymati 552,6 mln so‘m). Ayni paytda “Oilaviy tadbirkorlik” dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40%i yoshlar tadbirkorligiga yo‘naltirilishi belgilangan.

Andijonda yoshlarning IT sohasiga qiziqishini rag‘batlantirish uchun yoshlar texnoparki tashkil etildi. 2023–2024 yillarda o‘tkazilgan bepul kurslarda qatnashgan iqtidorli yoshlardan 307 nafari dasturlash, SMM, dizayn va robototexnika bo‘yicha zarur bilimlarga ega bo‘ldi. Ular ko‘pchiligi frilanserlik va kichik IT-startaplar bilan shug‘ullana boshladi. Masalan, bitta texnopark bitiruvchisi oylik 500\$ daromad oluvchi frilanserga aylandi va “Innoshop” startapini yaratmoqda. Bundan tashqari, IT-parklarda yoshlarga grant va mentorlik dasturlari yo‘lga qo‘yildi.

Viloyatda xizmatlar sektori ham kengayib bormoqda. Ayol tadbirkorlar asosan kichik xizmat ko‘rsatish korxonalari va chakana savdoga kirishgan. Masalan, Andijon shahrida xizmatlar sohasidagi ayol rahbarlikdagi firmalarning soni 198 tani tashkil etdi. 2023–2024-yillarda xizmatlar ko‘rsatilishi hajmi qariyb 10–15% o‘sd. Shu sohada xotin-qizlar korxonalari uchun soliq va ijara imtiyozlari, maxsus grantlar joriy qilindi. Mahallalarda yoshlarni ham xizmat ko‘rsatishda ishga jalb qilish maqsadida “Yoshlar banki” va kasb-hunar markazlari faoliyatiga alohida e‘tibor qaratildi (masalan, Respublika miqyosida jami 13,000 nafar yosh tadbirkorlikka yo‘naltirildi).

Xotin-qizlar va yoshlarga tadbirkorlikdagi imtiyozlarni taqdim etish borasida bir qator o‘lkalarning tajribasi o‘rganildi. Polshada ayollar tadbirkorligi uchun Yevropa Ittifoqi mablag‘lari va nodavlat sektor kuchli yordam beradi. Masalan, xususiy Women’s Entrepreneurship Foundation tashkiloti 2013-yildan buyon ayollar uchun treninglar, mentorlik va tarmoqlar (networking) dasturlarini olib borib, “Business in Women’s Hands” kabi 7 oyli kurslarni yo‘lga qo‘ydi.[6] Bu kurslar va “GO DIGITAL” loyihalari orqali ayollar kichik biznesida raqamli ko‘nikmalar oshiriladi. Turkiyada xotin-qizlar va yoshlar uchun davlat darajasida qat’iy qo‘llab-quvvatlash mavjud: masalan, Xalq bank xotin-qizlar tadbirkorligini rag‘batlantirish uchun alohida kredit dasturini joriy qildi. KOSGEB idorasi ayollar uchun ko‘proq grant va kredit limiti belgilaydi (ularga ijobiy diskriminatsiya yo‘lga qo‘yilgan).[7] “WOMEN-UP” loyihasi orqali turli hududlarda 4,000 nafar ayol ish beruvchi va xodimlarga subsidiya ajratildi. Shuningdek, Turkiyada “Women to Women” tarmog‘i va “Young Women Building Their Future” portali kabi tashabbuslar orqali ayollar va yoshlarga masofadan ish topish va biznes boshlash imkoniyatlari taqdim etilmoqda. Janubiy Koreyada esa demografik tanazzul va keng jinslar farqi sababli ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga katta e‘tibor berilyapti. Koreya ma’lumotlariga ko‘ra, ayol-xotinlarning olti nafardan faqat to‘rtida erkaklar darajasida band bo‘lish imkoniyati bo‘lmoqda, ayollar yillik daromadi erkaklarning taxminan 67.2% ini tashkil etadi. Faqatgina 25% yangi korporativ bizneslar xotin-qizlar tomonidan ochiladi. Shu sababli koreys hukumati yaqin yillarda jinslar bo‘yicha tenglikni taminlash orqali yalpi ichki mahsulotni 9% ga oshirish (≈ 160 mlrd\$) imkoniyatini ko‘rib chiqmoqda.[8] Bu maqsadda Koreyada maxsus grantlar, masalan, ayollar qo‘shma korxonalariga imtiyozli kreditlar va mentorlik dasturlari taqdim etilmoqda. Bunday xalqaro tajribalar Toshkent va Andijon kabi hududlarda O‘zbekiston sharoitiga mos modellarni tatbiq etishda yo‘l-yo‘riq beradi.

Xulosa. Andijon viloyatida xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorligiga ko‘maklashish tizimini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar 2023–2024-yillarda sezilarli natijalar berdi. Xotin-qizlar rahbarligidagi kichik biznes soni ortib, ularning tarmoqlardagi ulushi oshdi. Qishloq xo‘jaligi, IT va xizmatlar sektori kesimida maxsus dasturlar yo‘lga qo‘yildi. Mahalliy va xalqaro tajribalar – Polsha, Turkiya, Koreya kabi – mamlakatimiz tadbirkorlar uchun innovatsion model va dastur taqdim etmoqda. Ularning asosida O‘zbekiston Konstitutsiyasi va BMT/XMT konvensiyalari doirasida ta‘minlanadigan huquqiy kafolatlar xotin-qizlar va yoshlarga teng imkoniyat yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Muhitdinova F.A. Xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatiga keng jalb qilishning xuquqiy asoslari va zamonaviy tendetsiyalari. "Экономика и социум" №5(120)-1 2024
2. Women’s Entrepreneurship in Uzbekistan: Assessment and recommendations, UNDP, 2025